



SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI





SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARILISHI

*(2023-yilning yanvar-dekabr
oylari uchun dastlabki
ma'lumot)*



Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 32 676,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,8 % ni tashkil etdi.

yanvar-dekabr
mlrd. so'm



yanvar-dekabr
FHI, %






■ mlrd. so'm ■ FHI %

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarining aksariyati Samarqand shahrida joylashganligi hisobiga (25 635,1 ming so'm) hamda Jomboy tumanida (17 280,2 ming so'm) nisbatan yuqoriligini ko'rsatmoqda.





Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2023-yil yanvar-dekabr oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 31 422,4 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,2 % ni tashkil etdi.



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (45,4 %), Jomboy tumani (9,9 %), Toyloq (7,5 %), hamda Urgut (7,2 %), tumanlari hissasiga tog'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Kattaqo'rg'on shahrida (112,8 %) Ishtixon tumanida (110,3 %) Qo'shrabot tumanida (108,5 %) hamda Paxtachi tumanida (108,3 %) kuzatildi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2023-yil yanvar-dekabr oylari

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi oʻsishining asosiy omili boʻlib, ishlab chiqarish 6,5 % ga hamda suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilishda 36,8 % ga, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 28,3 % ga oʻsishi kuzatildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashning 39,8 % ga pasayish kuzatildi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 450,0 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 0,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali 15,0 % (16,3 %), o'rta-quyi texnologiyali 20,2 % (20,1 %) va quyi texnologiyalisi 60,2 % (58,9 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,0 % (2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi 11,5 % (2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 21,6 % (2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 38,5 % (2022-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,6 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-dekabr	2023-yil yanvar-dekabr	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	162,8	50,9	-111,9
Paxta tolasi, ming t.	57,5	65,1	7,6
Tozalangan paxta yog'i ming tonna	17,4	27,6	10,2
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	679,6	830,2	150,6
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g. (buxanka), tonna	614,4	689,5	75,1
Uzum vinosi - ming litr	228,1	90,0	-138,1
Aroq – ming litr 100 % spirt	159,1	71,6	- 87,5

2023-yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), 689,5 tonna (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 12,2 % ga ko'paygan), 50,9 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (68,7 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

(2023-yil yanvar-dekabr oylarida)

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-dekabr oylarida yirik korxonalar tomonidan jami 3 541 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 13,7 % ga kamaygan.



2023-yil

3 541 dona

2023-yil

86,3 %

2022-yil

4 094 dona

2022-yil

92,4 %

2021-yil

3 978 dona

2021-yil

95,6 %

Avtobuslar ishlab chiqarish

(2023-yil yanvar-dekabr oylarida)

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-dekabr oylarida 921 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 32,1 % ga kamaygan.



2023-yil

921 dona

2023-yil

67,9 %

2022-yil

1 357 dona

2022-yil

135,3 %

2021-yil


1003 dona

2021-yil

156,2 %




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 11,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 146,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 11,5 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 104,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3 610,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 4,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 94,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 4,0 % gacha ko'tarilgan, fizik hajm indeksi esa, 96,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 244,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 26,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 105,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 28,8 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 114,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 9 040,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 103,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,9 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 106,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 297,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 17,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 105,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,1 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 110,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 5 693,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kiyim ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 98,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,5 %, fizik hajm indeksi 103,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 795,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.





Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 86,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi 193,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 432,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 116,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 %, fizik hajm indeksi 159,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 376,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 107,1 % .

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi 124,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 796,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 128,6 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % ni, fizik hajm indeksi 113,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 750,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 75,0 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi 115,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 909,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 12,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 110,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 11,6 %, fizik hajm indeksi 88,9 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 3 656,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 561,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,7 % ni) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 60,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-dekabr	2023-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	517 898,5	199 568,9	- 318 329,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	7 459 543,0	7 261 000,0	- 198 543


(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda*)



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 242,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-dekabr	2023-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	39 960,9	52 672,9	12 712,0
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	103,5	117,7	14,2
Plastmassa chiqindilari, tonna	1 137,8	2 646,3	1 508,5

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda*)



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar


Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati



Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 30,5 %, shuningdek, Toyloq 14,5 %, Urgut 12,3 % ni hamda Samarqand tumanlarida 11,1 % ni tashkil etdi



■ mlrd. so'm ■ o'sish sur'ati, %

yanvar-dekabr

mlrd. so'm



Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi


yanvar-dekabr o'sish sur'ati





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish 2 501,8 ming so'm bo'lgan holda, Samarqand shahrida 5 487,9 ming so'mni, Toyloq 6 930,8 ming so'mni, Jomboy 5 026,7 ming so'mni va Samarqand tumanlarida 4 285,6 ming so'mni tashkil etdi.

yanvar-dekabr
ming so'm




yanvar-dekabr
o'sish sur'ati



■ ming so'm ■ o'sish sur'ati, %

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 10 415,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 101,4 %, jami sanoatdagi ulushi 31,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 5 345,7 milliard so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 3,6 % ga oshdi.

2022-yilning shu davriga nisbatan viloyat buyicha o'rtacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Ishtixon (113,7 %), Oqdaryo (101,8 %), Jomboy (109,4 %) hamda Samarqand tumanlarida (115,3 %) korxonlari tomonidan yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 51,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 48,7 % ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmda oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 54,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 45,7 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2022-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 103,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 98,3 % ni tashkil etdi.





Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'atlari

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulush Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 35,2 % ni, shuningdek, tumanlardan Urgut 14,8 %, Toyloq 14,5 %, hamda Samarqand tumanlari 10,0 % ni tashkil etdi.





Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulush Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 26,1 % ni, shuningdek, Toyloq 14,6 %, Jomboy tumanlarida 13,7 % ni tashkil etdi.

yanvar-dekabr
mlrd. so'm



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

yanvar-dekabr
o'sish sur'ati



■ mlrd. so'm - o'sish sur'ati, %

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6 151 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 217 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 19,8 %) Samarqand shahriga, 836 tasi (13,6 %) Urgut, 616 tasi (10,0 %) Samarqand, 482 tasi (7,8 %) Pastdarg'om va 358 tasi (5,8 %) Ishtixon tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

1 225 ta

2023-yil yanvar-dekabr

1 642 ta

2022-yil yanvar-dekabr

1 899 ta

2021-yil yanvar-dekabr



Jami faoliyat yuritayotgan

6 151 ta


2024-yil 1-yanvar holatiga

8 854 ta

2023-yil 1-yanvar holatiga

8 050 ta


2022-yil 1-yanvar holatiga





Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 14 561,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,6 % ni tashkil etdi.

yanvar-dekabr
mlrd. soʻm



yanvar-dekabr
Ulushi, %



■ mlrd. soʻm - oʻsish surʻati, %